

““Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki tomonidan
jismoniy shaxslarga mikroqarz berish qoidalari”ga
2-ilova

Mikroqarzning to‘liq qiymati:
____ (_____
foiz

MIKROQARZ SHARTNOMASI

20 __ yil «__» _____ № _____
shahri _____
“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banking
filiali (bank xizmatlari markazi) (keyingi o‘rinlarda
– Bank) boshqaruvchisi (boshligi) _____ Nizom va Ishonchnoma asosida
faoliyat yuritib, bir tomondan, va jismoniy shaxs _____
(keyingi o‘rinlarda – Qarzdor/mijoz),
ikkinci tomondan, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdik.

1-§. Shartnoma predmeti

1. Bank ushbu Shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida Qarzdorga/mijozga _____
(_____) so‘m mikroqarz beradi.
Qarzdor/mijoz esa o‘z navbatida olingen mikroqarz mablag‘ini belgilangan muddatda
qaytarish va mikroqarz mablag‘idan foydalanganligi uchun foiz to‘lash majburiyatini oladi. (*Bank
kuzatuv kengashining 2025 yil 21 iyuldagи 80-qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 19 avgustda
705-son bilan ro‘yxatga olingen ichki normativ hujjat tahriridagi xatboshi*)
2. Mikroqarz _____ ajratiladi.
(*naqd pulsiz shaklda yoki naqd pulda*)
3. Qarzdor/mijoz tomonidan olingen mikroqarz hisobini yuritish uchun Bank unga tegishli
mikroqarz hisobvarag‘i ochadi.

2-§. Shartnoma qiymati

4. Mikroqarzning foiz stavkasi yillik hisob asosida ____% miqdorida belgilandi. Mikroqarz
mablag‘i ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq o‘z vaqtida qaytarilmagan takdirda, muddati
o‘tkazilgan qarzdorlik uchun mikroqarzning foiz stavkasi yillik hisob asosida ____% miqdorida
o‘rnatalidi.
5. Mikroqarz bo‘yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni to‘lash tomonlarning o‘zaro
kelishuviga muvofiq _____ usulida amalga oshiriladi.
(*differensial yoki annuitet*)

6. Bank mikroqarzdan foydalanganlik uchun foizni Qarzdorga/mijozga haqiqatda berilgan
mikroqarz bo‘yicha asosiy qarzning qoldig‘iga nisbatan ushbu Shartnomada belgilangan nominal
stavka bo‘yicha hisoblaydi. Bunda, mikroqarzdan foydalanganlik uchun foiz mikroqarz mablag‘i
Qarzdorning/mijozning hisobvarag‘iga o‘tkazilgan yoki Qarzdorga/mijozga naqd pulda berilgan
sanadan boshlab hisoblanadi.

Mikroqarz bo‘yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni to‘lash ushbu Shartnomaga ilova
qilingan mikroqarzni qaytarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi. Mikroqarz to‘lovi dam olish
kuniga to‘g‘ri kelsa, hisoblangan foizni to‘lash dam olish kunidan keyingi birinchi ish kunida dam
olish kunida hisoblangan foizni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Qarzdordan/mijozdan mikroqarzning joriy to‘lovi uchun mikroqarzni qaytarish jadvalida
belgilanganga nisbatan ko‘p mablag‘ kelib tushsa, u holda Bank kelib tushgan mablag‘ning

ortiqcha qismini qarzdor/mijoz mikroqarzi bo'yicha asosiy qarzni so'ndirishga yo'naltiradi hamda mikroqarz qiyamatini qayta hisoblaydi.

Mikroqarzni qaytarish jadvali rasmiylashtirilgandan so'ng mikroqarz bo'yicha moliyalashtirishni boshlash muddati o'zgarganda, shuningdek Qarzdor/mijoz tomonidan mikroqarz qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan mikroqarz bo'yicha to'lovni amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq mikroqarz to'lovlaring miqdori o'zgarganda Bank mikroqarzni qaytarish jadvalini, qo'shimcha kelishuvga asosan, yangidan rasmiylashtiradi. Bunda, mikroqarzni qaytarish jadvali yangidan rasmiylashtirishi bilan undan oldin mavjud bo'lган mikroqarzni qaytarish jadvali o'z kuchini yo'qotadi.

6-1. Mikroqarz bo'yicha amalga oshirilgan to'lov qiymati Qarzdorning/mijozning Bank oldidagi majburiyatini batamom bajarish uchun yetarli bo'Imaganida, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 248-moddasiga muvofiq, Qarzdorning/mijozning qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:

- a) asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlarini mutanosib ravishda;
- b) joriy davr uchun hisoblangan foiz va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
- c) jarima va penya;
- d) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lган boshqa xarajatlari.

(Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 3 martdagи 36-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 4 martda 694-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)

3-§. Tomonlarning huquq va majburiyatları

7. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- a) Qarzdorning/mijozning to'lovga layoqatlichkeit qobiliyatini yanada to'laroq tahlil qilish uchun undan qo'shimcha hujjatlar talab qilish;
- b) Qarzdor/mijoz mikroqarzdan shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran bir oy ichida foydalanmagan taqdirda, shartnomani bekor qilish haqida qarzdorni/mijozni yozma ravishda xabardor etish orqali ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qilish;
- c) mikroqarz belgilangan muddatda so'ndirilmaganda, mikroqarz qaytarilishi yuzasidan ushbu Shartnoma shartlarida belgilangan tegishli choralarini ko'rish;
- d) Qarzdor/mijoz ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida asosiy qarz va/yoki foiz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik paydo bo'lsa, Qarzdorning/mijozning O'zbekiston tijorat banklarida ochilgan bank hisobvaraqlaridan (bank omonatlaridan), shu jumladan bank kartalaridan mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lган pul mablag'ini so'zsiz va akseptsiz yechib olish/undirish/hisobdan chiqarish (bunda Bank tomonidan mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda qarzdorga/mijozga uning hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sababga asosan Bank foydasiga undirilganligi ko'rsatilgan holda xabarnoma yuboriladi); (Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 21 iyuldagи 80-qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 19 avgustda 705-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi kichik band)
- e) Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha asosiy qarzni qaytarish va (yoki) hisoblangan foizni to'lash muddati buzilganda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o'z talabnomasini Qarzdorga/mijozga yetkazish;
- f) Qarzdor/mijoz talabnomada belgilangan muddatda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, sudga da'vo bilan murojaat etish;
- g) Qarzdor/mijoz talabnomada belgilangan muddatda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, sudga da'vo bilan murojaat etish;
- h) Qarzdor/mijoz tomonidan, ushbu Shartnoma doirasida, korruption harakatlar bevosita yoki bilvosita sodir etilganligi aniqlansa, mazkur Shartnomani bir taraflama bekor qilish; (Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 3 martdagи 36-son qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 4 martda 694-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan kichik band)
- i) quyidagi har qanday davrda sodir bo'ladigan holatlarning har birida mikroqarzni muddatidan oldin sud tartibida to'liq undirish:

Qarzdor/mijoz mazkur Shartnoma yuzasidan o‘z majburiyatlarini mikroqarzn qaytarish jadvalida belgilangan muddatlarda bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida asosiy qarz, hisoblangan foiz, muddati o‘tgan mikroqarzga oshirilgan stavka bo‘yicha hisoblangan foiz bo‘yicha qarzdorlik yuzaga kelgan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kun davomida;

Qarzdor/mijoz ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini (qarzdorlikni to‘lash majburiyatidan tashqari), ularni bajarmayotganligi haqida bildirishnomha (talabnoma) yuborilgan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kun ichida lozim darajada bajarmasa.

(*Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 21 iyuldagisi 80-qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 19 avgustda 705-soni bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan kichik band*)

8. Bank quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

- a) mikroqarzn Qarzdorga/mijozga 20 yil “___” _____ dan 20 yil “___” _____ gacha bo‘lgan muddatga berish;
 - b) Qarzdorning/mijozning so‘rovi bo‘yicha mikroqarz hisobvarag‘ining holatiga oid ko‘chirmani taqdim qilish;
 - c) mikroqarzn muddatidan oldin undirish sababi haqida Qarzdorni/mijozni xabardor etish;
 - d) Bank Qarzdorga/mijozga ushbu Shartnomada nazarda tutilgan mikroqarzn berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, mazkur mikroqarz bo‘yicha mablag‘ berishni to‘xtatib qo‘yish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Qarzdorga/mijozga mikroqarz berish to‘xtatilganligi va uning sababi yuzasidan yozma xabarnoma yuborish;
 - e) kredit bo‘yicha muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda Qarzdor/mijoz zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida ushbu qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 kalendar kuni davomida har qanday aloqa bog‘lash usulidan, shu jumladan elektron aloqa vositasidan foydalanib, Qarzdorga/mijozga muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida kreditni qaytarish grafigini ilova qilgan holda xabar berish;
 - f) Qarzdorni/mijozni ushbu shartnoma bo‘yicha muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlikni qaytarish majburiyatları bajarilmaganligi holati, muddati, qiymati, tarkibi va oqibatlari haqida xabardor qilish, Qarzdordan/mijozdan muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelishi sabablari haqida so‘rash;
 - g) Qarzdorni/mijozni ushbu shartnoma bo‘yicha asosiy qarzni qaytarish va (yoki) hisoblangan foizni to‘lash muddati buzilganda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o‘z talabnomasini qarzdorga/mijozga yuborish (ushbu talabnomada talabnomada tuzilgan sanadagi Qarzdorning/mijozning joriy qarzi miqdori va tarkibi, qarzni to‘lash usullari, talabnomada ko‘rsatilgan muddatgacha qarzdor/mijoz o‘z majburiyatlarini bajarmasligi oqibatlari va nizoni sudgacha hal qilish usullari qayd etiladi); (*Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 21 iyuldagisi 80-qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 19 avgustda 705-soni bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi kichik band*)
 - i) Qarzdordan/mijozdan mikroqarzning joriy to‘lovi uchun mikroqarzn qaytarish jadvalida belgilanganga nisbatan ko‘p mablag‘ kelib tushsa, u holda kelib tushgan mablag‘ning ortiqcha qismini mikroqarzning asosiy qarzini so‘ndirishga yo‘naltirish hamda mikroqarz qiymatini qayta hisoblash;
 - j) Qarzdor/mijoz tomonidan mikroqarz bo‘yicha qarzdorlik to‘liq to‘langandan so‘ng, ushbu qarzdorlik bo‘yicha amalga oshirilgan oxirgi to‘lov sanasining keyingi 3 ish kunidan kechiktirmagan holda Qarzdorning/mijozning shaxsiy kabinetida mikroqarz bo‘yicha qarzdorlik to‘liq so‘ndirilganligi va ushbu Shartnoma bo‘yicha qarzdorlik mavjud emasligi to‘g‘risida ma’lumot joylashtirish.
9. Qarzdor/mijoz quyidagi huquqlarga ega:
- a) mikroqarzning o‘z vaqtida ajratilishini talab qilish;
 - b) ushbu shartnoma tuzilgandan keyin va Qarzdor/mijoz tomonidan pul mablag‘i olingunga qadar bo‘lgan davrda mikroqarz olishdan bepul asosda voz kechish;
 - d) mikroqarz bo‘yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni jarima sanksiyalarisiz istalgan

vaqtida muddatidan oldin to‘liq to‘lagandan hamda shartnama bo‘yicha majburiyatlarni to‘liq bajargandan so‘ng Bank bilan ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilish. (*Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 21 iyuldagagi 80-qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 19 avgustda 705-sod bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi kichik band*)

10. Qarzdor/mijoz o‘z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) mikroqarz ajratilgunga qadar mikroqarz ta’mintiga oid hujjatlarni rasmiylashtirish va Bankka taqdim etish;

b) mazkur Shartnama shartlari va mikroqarzni qaytarish jadvaliga muvofiq mikroqarzni belgilangan muddatlarda to‘lash, Bank bilan o‘z vaqtida hisob-kitobni amalga oshirish; (*Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 21 iyuldagagi 80-qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 19 avgustda 705-sod bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi kichik band*)

d) yashash joyi, ish joyi, familiyasi yoki ismi va ushbu Shartnama bo‘yicha majburiyatlar bajarilishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlarga oid o‘zgarishlar to‘g‘risida axborotni 5 (besh) bank ish kuni mobaynida Bankka taqdim etish;

e) ishdan bo‘shaganda mikroqarz va unga hisoblangan foizni muddatidan oldin so‘ndirish;

f) ushbu Shartnama bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida asosiy qarz va/yoki foiz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik paydo bo‘lsa, Bankka o‘zining O‘zbekiston tijorat banklarida ochilgan bank hisobvaraqlaridan (bank omonatlaridan), shu jumladan bank kartalaridan mazkur Shartnama bo‘yicha majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘ini so‘zsiz va akseptsiz yechib olish/undirish/hisobdan chiqarish huquqini berish. (*Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 21 iyuldagagi 80-qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 19 avgustda 705-sod bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan kichik band*)

4-§. Tomonlarning javobgarligi

11. Tomonlar ushbu Shartnama majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, ularga O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlik chorralari qo‘llaniladi.

5-§. Nizolarni hal qilish

12. Bank va Qarzdor/mijoz, taraflarning o‘zaro roziligiga ko‘ra, qonun hujjatlarida belgilangan nizoni sudgacha hal qilish usullarini qo‘llashga, shu jumladan muzokara o‘tkazish orqali hal qilishga haqli hisoblanadi.

13. Taraflar ushbu Shartnama bilan bog‘liq bo‘lgan, muzokara yo‘li bilan hal qilish mumkin barcha nizolarni Bank (bank xizmatlari ofisi, bank xizmatlari markazi) joylashgan joydagi tegishli sudda ko‘rib chiqishga kelishib oldilar. (*Bank kuzatuv kengashining 2025 yil 3 martdagagi 36-sod qarori bilan tasdiqlangan va 2025 yil 4 martda 694-sod bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band*)

6-§. Shartnomaning boshqa shartlari

14. Ushbu Shartnomaning ilovasi uning ajralmas qismi hisoblanadi.

15. Mikroqarz bo‘yicha to‘lov muddati o‘tgan foiz yuzaga kelgan taqdirda Qarzdor/mijoz har bir muddati o‘tgan kun uchun to‘lov muddati o‘tgan foiz qiymatidan Bankka __%, lekin muddatida to‘lanmagan foiz qiymatining 50 foizidan oshmagan miqdorda penya to‘laydi (agar mikroqarz shartarida muddati o‘tgan foiz qarzdorligiga penya o‘rnatilgan bo‘lsa). Penya to‘lanishi Qarzdorni/mijozni muddati o‘tgan foiz qarzdorligini to‘lashdan ozod qilmaydi. (*Bank kuzatuv kengashining 2022 yil 25 martdagagi 35-qarori bilan tasdiqlangan va 2022 yil 31 martda 602-sod bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band*)

16. Bank qarzdor/mijoz uchun ushbu shartnama bo‘yicha asosiy qarzni qaytarishning va hisoblangan foizni to‘lashning masofadan turib amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

17. Mazkur Shartnama u imzolangan kundan boshlab to Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu Shartnama majburiyatlari to‘liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

18. Mazkur Shartnomaning bekor qilinishi tomonlarni u bekor qilingunga qadar bildirilgan o‘zaro da’volarni (talablarni) qondirish majburiyatidan ozod qilmaydi.

19. Ushbu Shartnomaga kiritiladigan har qanday o‘zgartirishlar ular yozma ravishda tuzilib, tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolanganda qonuniy kuchga ega bo‘ladi.

20. Mazkur Shartnomada ko‘zda tutilmagan holat yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari qo‘llaniladi.

7-§. Tomonlarning pochta manzillari va rekvizitlari

Bank:	Qarzdor/mijoz:
Manzili: _____	Manzili: _____
Tel.: _____	Telefon: _____
STIR: _____	STIR: _____
Bank	kodi: _____
Bank hisobvarag‘i: _____	Shaxsnini tasdiqlovchi hujjat maJlumotlari: _____
Boshqaruvchi _____	(boshliq): _____
<i>Muhr</i>	